

AMUDARYO TUMANIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBEKTлари

Yo'ldosheva Nilufar Qurolboy qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Tarix fakulteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
bakalavr ta'lim yo'nalishining 2-b guruh talabasi*

Anantatsiya; *Ushbu maqolada Amudaryo tumanidagi sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari, kichik biznes va tadbirkorlik subektlari hamda ularning yillar bo'yicha o'zgarishi, faoliyati rivojlanishi, muammolari tog'risida so'z boradi.*

Tayanch atamalar; *Eksport, import, tashqi savdo aylanmasi, tadbirkorlik subektlari, HICHM, hududiy mehnat taqsimoti.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan davlatlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan ko'plab imtiyozlar berildi. SHu imtiyozlardan kichik biznes va tadbirkorlik subektlari samarali foydalanib, tez suratlarda bilan tadbirkorlik soni va mahsulot yetishtirish hajmi ortib bormoqda. SHu jumladan Amudaryo tumanida ham bunga katta ahamiyat berilmoqda.

Amudaryo tumanining jami tashqi savdo aylanmasi 10,7 % ni tashkil qiladi. Shulardan;

Eksport---8,6%

Import---2,2%.

Bu ko'rsatkich albatta Amudaryo tumanidagi qulay tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichga ham bevosita bog'liq.

Bugungi kunda Amudaryo tumanidagi ro'yxatga olingan tadbirkorlik subektlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni 1570 ta (2022-yil boshida).

Qoraqalpog'iston Respublikasida esa jami 21048 tani tashkil etadi. Yangi tashkil etilganlarning soni Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami 4038 ta bo'lsa, Amudaryo tumanida 307 ta va bu ko'rsatkich bo'yicha tuman Nukus shhri (1030 ta), Beruniy tumani (394 ta), To'rtko'l tumani (340 ta) dan keyingi 4- o'rinda turadi.

O'n yil oldingi holatga ko'ra (2012 –yil), kichik biznes va tadbirkorlik subektlari soni Amudaryo tumanida 665 ta ni tashkil etgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 9960 tani tashkil etgan.

Yuqoridagi raqamlardan ko'rish mumkinki, yaqin o'n yil ichida Amudaryo tumanida tadbirkorlik subektlari soni 905 taga o'sgan.

Lekin, shuni ham aytib o'tish joizki, 2012-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida tugatilgan tadbirkorlik subektlari soni 793 ta ni tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo tumanida 65 ta ga teng. Bu ko'rsatkich bo'yicha oldingi o'rinlarni egallagan.

2022-yil holatiga ko'ra tadbirkorlik subektlari soni keskin o'sdi. Shunga qaramasdan tugatilgan korxonalar va tadbirkorlik subektlari soni Qoraqalpog'iston Respublikasida 699 ta ni tashkil etgan, Amudaryo tumanida bu ko'rsatkich 41 tani tashkil etgan ya'ni 2012 –yil

holatiga nisbatan kamaygan. Tugatilganlar soni bo'yicha yaqin o'n yilda tumanlar aro 1 – o'rinda turgan bo'sa, endilikda 4 o'rinni egallaydi.

Amudaryo tumanida, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subektlari soni 2022-yil holatiga ko'ra 189 ta 2012-yilda esa 131 tani tashkil etgan. Bundan ko'rish mumkinki yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subektlari soni 58 ta ga oshgan. Ammo tugatilgan tadbirkorlik subektlari soni anchaga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan asosiy qismi quyidagilardan iborat;

_ qishloq xo'jaligi,

_ o'rmon xo'jaligi,

_ baliq xo'jaligi, asosiy xo'jaliklarning 50% dan ortiqroq qismini tashkil etadi.

Bundan tashqari keyingi o'rinlarda,

_ savdo,

_ sanoat va qurilish sohalari,

_ ovqatlanish bo'yicha xizmatlar asosiy o'rinni egallaydi.

Amudaryo tumanida bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikning baliqchilik xo'jaligi yaxshi rivojlanayotgan sohalaridandir. Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaliklarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2381 ta ni (2021-yil holatiga ko'ra.) tashkil etadi. Bu esa albatta yuqori ko'rsatkichga ega.

Shuni aytib o'tish kerakki, tadbirkorlik va kichik biznes subektlarini yoki umuman biror bir hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda nimalarga e'tibor berish kerak dagan savollar tug'ladi. Albatta juda ko'plab omillarga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki bu borada N. N. Kovolovskiy fikricha `` ma'lum bir hududda yoki iqtisodiy rayonda ishlab chiqarish korxonalarini yoki axoli punkitlarini bir biriga bog'liq holda rivojlanad.``

Bundan tashqari tumandagi tadbirkorlik va kichik biznes subektlari sonining ortishiga, hududiy mehnat taqsimoti, qulay sharoit ha asos bo'ladi. Hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Albatta, iqtisodiy rayon xo'jaligi o'zining mohiyati va maqsadiga ko'ra har tomonlama (kompleks) rivojlanishi lozim.

Bundan tashqari tumanda kichik biznes va tadbirkorlik subektlarining rivojlanishida Prezidentimizning farmon va qarorlari katta ahamiyatga egadir.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalar soddalashtirilganligi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlar agentligi va uning joylarda markazlari tashkil etilganligi juda katta ahamiyatga ega. Hamda barcha hududlarda murojaatlar qabul qilinib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab -quvvatlash jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Tijorat banklari tomonidan

tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi. Shuning uchun ham Amudaryo tumanida bunday amaliy choralar o'z natejasini ko'rsatmoqda desak mubolag'a bo'maydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

- 1.Umarov K.Yu ``Iqtisodiyot nazaryasi`` Toshkent 2005
- 2.A.S.Soliyev, N. K .Komilova, S.I.Yanchuk ``Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya``Toshkent ``Noshir`` 2019
- 3.Mirzaxodjiyeva A.B., Sharifov SH.S., Boboqulov S.B., ``Makroiqtisodiyot`` fanda o'quv qo'llanma Samarqand-2021.
- 4.U.P. Umurzakov, A.Z.Toshboyev "Kichik biznes va tadbirkorlik" Toshkent-2014.
- 5.Soliyeva A. ``O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi``. Toshkent; ``Universitet``, 2014.
- 6.Internet materiallari;
Daryo.uz
www.qrstat.uz